

# CHET TILI FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHINING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH USULLARI

Jizzax davlat pedagogika instituti "Umumiy psixologiya" kafedrası o'qituvchisi  
Nodira Tashpo'latova Xudjamuradovna.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o'quv faoliyatlarini boshqarishning eng muxim xususiyatlaridan biri-bu turli usullarni tadbiq etish, maxsus ravishda o'qitishni joriy qilish, xar xil xususiyatga molik didaktik metodlardan foydalanish usullari to'g'risida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Bilish motivlari, ichki motivlar, bilimlarni o'zlashtirish darajasini baholash, o'z-o'zini tekshirish, o'z oldiga maqsad qo'ya olish.

Yu.A.Samarin assosasiyalarga asoslangan xolda o'quv faoliyatini boshqarish mumkinligi nazariyasini o'rta tashladi. Assotsatsiyalar ongimizdagi avvalgi turmush tajribalari bilan belgilanadigan tasavvurlarning bog'lanishi, bu bog'lanishlar tufayli ongimizda paydo bo'lgan muayyan tasavvurlarning o'xshashlik yondoshlik, qarama –qarshilik belgilariga ko'ra, shunga bog'liq bo'lgan boshqa tasavvurlarni xosil qilishdir.

D.B.Elkonin o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarishga o'rgatish uchun

A) topshiriqni yechish vositalar tanlash

B) psixologik topshiriqni yechish uchun o'z-o'zini nazorat qilishni amalga oshirish

D bilimlarni o'zlashtirish darajasini baholash

E) o'z-o'zini tekshirish

F) o'z oldiga maqsad qo'ya olish

G) simvollar bilan predmetning ichki munosabatlari mavjudligini tushunish kabi jihatlarga e'tibor qilishni uqtirib o'tadi.

O'quvchilarning diqqati - o'quv ishlari muvoffaqiyatli borishining zarur shartidir. Ta'lim jarayonida diqqat takomillashadi, ancha ixtiyoriy, ya'ni uyushgan,

tartibga tushgan boshqariladigan bo'lib qoladi. Diqqatsizlikning oddiy sabablari – fanga nisbatan qiziqishning yo'qligi, materialni bayon qilishning quruq va noaniqligi o'quvchilarning charchaganligidir. O'quvchilar diqqatini qo'zg'atishning asosiy vositalari xilma-xil usullarni qo'llagan xolda mashg'ulotlarni dinamik tarzda olib borish, o'quvchilar aktivligini oshirish, bayon qilishning jonliligi, bir faoliyat turidan ikkinchisiga o'tishi, diqqatni chalg'ituvchi qo'zgovchilarga barham berishdan iboratdir.

### **O'quv faoliyati motivlari to'g'risida mulohazalar**

Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, har qanday faoliyat muayyan motivlar ta'sirida vujudga keladi va yetarli shart – sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'zlashtirish, egallash va o'rganishni amalga oshirishni ta'minlash uchun o'quvchilarda o'quv motivlari mavjud bo'lishi shart.

**Bilish motivlari** shaxsning (sub'ektning) gnoseologik maqsad sari, ya'ni bilish maqsadini qaror toptirishga, bilim va ko'nikmalarni egallashga yo'naltiriladi. Odatda bunday turdosh motivlar nazariy ma'lumotlarning ko'rsatishicha, tashqi va ichki nomlar bilan atalib, muayyan toifani yuzaga keltiradi.

**Tashqi motivlar** jazolash va taqdirlash, xavf-xatar va talab qilish, guruhiy tazyiq, ezgu niyat, orzu-istak kabi qo'zg'atuvchilar ta'sirida vujudga keladi. Bularning barchasi bevosita o'quv maqsadga nisbatan tashqi omillar, sabablar bo'lib hisoblanadi. Mazkur holatda bilimlar va malakalar o'ta muhimroq boshqa, hukmron (yetakchi) maqsadlarni amalga oshirishni ta'minlash vazifasini bajaradi (yoqimsiz holat va kechinmalar yoki noxush, noqulay vaziyatdan qochish, ijtimoiy yoki shaxsiy muvaffaqiyatga erishish; muvaqqat erishuv muddaosi mavjudligi va hokazo. Bu turdagi yoki jinsdagi tashqi motivlar ta'sirida ta'lim jarayonida bilim va ko'nikmalarni egallash (o'zlashtirish)da qiyinchiliklar kelib chiqadi va ular asosiy maqsadni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Masalan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning asosiy maqsadi o'qish emas, balki ko'proq o'yin faoliyatiga moyillikdir. Mazkur vaziyatda o'qituvchining o'qishga ularni jalb qilish niyati o'quvchilarning o'yin maqsadining ushaliishiga halaqit

berishi mumkin, lekin izoh talab dalillar yetishmaydi. Motivlarning navbatdagi toifasiga, yani **ichki motivlar** turkumiga individual xususiyatli motivlar kiradiki, ular o'quvchi shaxsida o'qishga nisbatan individual maqsadni ro'yobga chiqaruvchi qo'zg'alish negizida paydo bo'ladi. Chunonchi, bilishga nisbatan qiziqishning vujudga kelishi shaxsning ma'naviy (madaniy) darajasini oshirish uchun undagi intilishlarning yetilishidir. Bunga o'xshash motivlarning ta'sirida o'quv jarayonida nizoli, ziddiyatli holatlar (vaziyatlar) yuzaga kelmaydi. Ta'lim jarayonida bunday vaziyatlarni yaratish o'qituvchining muhim vazifasi hisoblanib, uning faoliyati ichki anglanilgan motivlar o'quvchilar xulq – atvorini shunchaki boshqarish bilan cheklanmasdan, balki ular shaxsini shakllantirishga, ularda maqsad qo'ya olish, qiziqish uyg'otish va ideallarni tarkib toptirishga qaratilgan bo'ladi.

**O'quv faoliyati murakkab tuzilishga ega bo'lib, ular bir necha tarkibiy qismlardan tashkil topgan.** O'qitish ishlarida agar o'qituvchi ijodkor va izlanuvchi bo'lsa o'quvchining o'quv darajasi ham baland bo'ladi. O'qitishda ilg'or usullaridan biri ta'limning noan'anaviy shakllari hisoblanib, ular ta'lim jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi. Bu soxada bir qator tajriba – sinov ishlari amalga oshirilmoqda. Kuzatishlarimizdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, dars mashg'ulotlaridagi o'quvchilarga bo'lgan munosabat va talabning bir xilligi ularni shu darsga nisbatan qiziqishlari pasayib ketishiga sabab bo'ladi. Shularni hisobga olib, zamon talablaridan kelib chiqib darsni yangi usullarini, yangi turlarini qo'llashga to'g'ri keladi. Bu darslar «Auksion dars», «Ko'rgazma dars», «Koferentsiya dars», «Trening dars», «Test so'rov dars» va «Topog'onlik dars» kabilar. Bu darslarda tanqidiy fikrlashga katta e'tibor beriladi.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.Andreeva G.M. «Sotsialnaya psixologiya» Uchebnik - M 1999 yil.
- 2.Karimova V.M «Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot» T-1999 yil.
- 3.Karimova V.M. «Auditoriyada baxs – munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnikasi» - T – 2000 yil.

- 4.V.M.Karimova, F.A.Akramova «Psixologiya» (ma'ruzalar matni).
- 5.Toshpo'latova, N. (2021). ПРИ ОБУЧЕНИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ - УЧИТЫВАТЬ ПСИХИКУ УЧАЩИХСЯ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1386>
6. Imomqulova, F. (2021). ОИЛАДА ЭР-ХОТИН МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2962>
- 7.Imomqulova, F. (2021). ISSUES OF UPBRINGING IN UZBEK FAMILIES. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2620>
- 8.Majidov, J. (2021). ВОПРОСЫ ГАРМОНИИ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ О СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ И УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНЬЮ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1).* извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1369>
- 9.Majidov, J. (2021). НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ЧУВСТВА ОДИНОЧЕСТВА В ПОДРОСТКОВОМ ПЕРИОДЕ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1).* извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1375>